e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/wk3hby66

TURKIYANING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN MEDIA SOHASIDAGI HAMKORLIGI TARIXI (TELEVIDENIYE MISOLIDA)

Usarov Sirojiddin Raxmatullayevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, doktorant, (PhD).
e-mail: sur070483@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0003-0009-1865

Annotatsiya.

Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri televideniye sohasi hisoblanadi. 1992-yilda Turkiya radio va televideniye korporatsiyasi (TRT) tizimidagi xalqaro efirga ixtisoslashgan “TRT-Int” telekanali yangi mintaqalardagi, jumladan, Markaziy Osiyodagi auditoriyani ham qamrab olish maqsadida “TRT-Int Avrasya” deb qayta nomlandi. TRT dasturlarini mahalliy telekanallarning yer usti efir tarmoqlari orqali retranslyatsiya qilishga asos bo‘luvchi hamkorlik hujjatlari rasmiylashtirildi. Natijada ayrim mamlakatlarda mahalliy telekanallarning efir jadvalidan Turkiya ko‘rsatuvlari uchun alohida vaqt ajratildi. Ajratilgan efir vaqtini va translyatsiya qamrovini kengaytirish maqsadida moddiy-texnik ta’minotga oid qo‘shimcha kelishuvlar ham tuzildi. Biroq mazkur jarayon mintaqaning barcha davlatlarida bir xil kechmadi. Markaziy Osiyo davlatlarining yondashuvlari, o‘zaro munosabatlari, til bilan bog‘liq xususiyatlar va boshqa omillar hamkorlikning rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatdi. Maqolada XX asrning 90-yillaridan boshlab Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan televideniye sohasidagi hamkorligi, uning mamlakatlar kesimidagi xususiyatlari, shartnomaviy va tashkiliy asoslari hamda retranslyatsiya jarayoniga oid masalalar tarixiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Turkiya, Markaziy Osiyo, televideniye, TRT, TRT-Int Avrasya, TRT-Avrasya, TRT-Türk, TRT-Avaz.

ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА ТУРЦИИ СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В СФЕРЕ МЕДИА (НА ПРИМЕРЕ ТЕЛЕВИДЕНИЯ)

Усаров Сирожиддин Рахматуллаевич
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, докторант, (PhD).

Аннотация.

Одним из важных направлений сотрудничества между Турцией и государствами Центральной Азии является сфера телевидения. В 1992 году международный телеканал «TRT-Int», входивший в структуру Турецкой телерадиокорпорации (TRT), был переименован в «TRT-Int Avrasya» с целью расширения аудитории в новых регионах, включая Центральную Азию. Были оформлены документы о сотрудничестве, предусматривавшие ретрансляцию программ TRT через наземные эфирные сети местных телеканалов. В результате в некоторых странах для трансляции турецких телепередач выделялось отдельное эфирное время в сетке вещания местных телеканалов. В целях увеличения продолжительности эфирного времени и расширения охвата вещания заключались дополнительные соглашения, касавшиеся материально-технического обеспечения. Однако данный процесс развивался неравномерно в различных государствах региона. Подходы центральноазиатских стран, характер их взаимоотношений, языковые особенности и другие факторы оказывали различное влияние на развитие сотрудничества. В статье проводится исторический анализ сотрудничества Турции с государствами Центральной Азии в сфере телевидения начиная с 1990-х годов XX века. Рассматриваются особенности данного взаимодействия в отдельных странах, его договорно-правовые и организационные основы, а также вопросы, связанные с ретрансляцией телевизионных программ.

Ключевые слова: Турция, Центральная Азия, телевидение, TRT, TRT-Int Avrasya, TRT-Avrasya, TRT-Türk, TRT-Avaz.

THE HISTORY OF TURKEY’S MEDIA COOPERATION WITH CENTRAL ASIAN COUNTRIES (THE CASE OF TELEVISION)

Usarov Sirojiddin Raxmatullayevich
Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Doctoral Researcher, (PhD).

Abstract.

ISSN 3060-5059 (Online)

Television represents one of the important areas of cooperation between Turkey and the Central Asian countries. In 1992, TRT-Int, an international television channel operated by the Turkish Radio and Television Corporation (TRT), was renamed TRT-Int Avrasya to expand its audience in new regions, including Central Asia. Cooperation agreements were formalized to facilitate the retransmission of TRT programs through the terrestrial broadcasting networks of local television channels. As a result, dedicated airtime was allocated to Turkish television programs within the broadcasting schedules of local channels in certain countries. Additional agreements concerning technical and material support were also concluded to increase the allocated airtime and expand broadcasting coverage. However, this process did not develop uniformly across all countries in the region. The approaches adopted by Central Asian states, the nature of their mutual relations, linguistic factors, and other circumstances influenced the development of cooperation in different ways. The article provides a historical analysis of Turkey's cooperation with Central Asian countries in the field of television since the 1990s, examining its country-specific characteristics, contractual and organizational foundations, and issues related to the retransmission of television programs.

Keywords: Turkey, Central Asia, television, TRT, TRT-Int Avrasya, TRT-Avrasya, TRT-Türk, TRT-Avaz.

Kirish. Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan media, xususan, teleradio sohasidagi hamkorlik munosabatlari XX asrning 90-yillaridan yo'lga qo'yila boshlandi. 1992-yil 19-fevralda Turkiya Bosh vaziri Sulaymon Demirel (1991–1993) TRT hamda PTT (Turkiya pochta va telegraf tashkiloti)ga Turkiya va Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston hamda Turkmaniston respublikalari o'rtasida bir-birini yaqindan tanish, shuningdek, barcha sohalardagi hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida aloqa imkoniyatlarini oshirish va televideniye ko'rsatuvlarini zudlik bilan yo'lga qo'yish vazifasini yukladi [1; – S. 227–228]. Ushbu topshiriq Turkiyaning mazkur yo'nalishdagi siyosatini amalga oshirishda muhim qadam bo'ldi. Ikki tashkilot xalqaro efir sohasida to'plagan tajribasiga tayangan holda mintaqani qamrab oluvchi ko'rsatuvlarni uzatish uchun zarur texnik va tashkiliy masalalarni hal qilishga kirishdi.

TRT 1990-yildan boshlab Yevropada yashovchi turkiyaliklar uchun xalqaro efirni "TRT-Int" kanali orqali uzatib kelayotgan edi. Mazkur topshiriqdan keyin ushbu kanal yangi mintaqalar (Kavkaz va Markaziy Osiyo) uchun ham alohida dasturlar uzatishga moslashtirildi va 1992-yil 28-aprelda "TRT-Int Avrasya" deb qayta nomlandi. Ta'kidlash joizki, bu o'zgarish TRT tizimida yangi kanal tashkil etilishiga emas, balki mavjud kanalning nomi va efir siyosati o'zgarishiga olib keldi [2; – S. 519]. Mazkur mintaqalarga oid ko'rsatuvlar Intelsat V F7 sun'iy yo'ldoshi (57° sharqiy uzunlik) orqali, 1994-yil 23-sentabrdan esa Turksat 1B sun'iy yo'ldoshi (42° sharqiy uzunlik) orqali uzatila boshlandi [3].

Shu tariqa, TRT ko'rsatuvlari sun'iy yo'ldosh orqali Markaziy Osiyo mintaqasini ham qamrab oldi. 1992-yil aprel–may oylarida Turkiya Respublikasi Bosh vaziri Sulaymon Demirelning mintaqaga tashrifi davomida O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston bilan TRT tomonidan Yevropa, Osiyo va Shimoliy Afrikani qamrab olgan "AVRASYA-TV" ("TRT-Int Avrasya") ko'rsatuvlarini ushbu davlatlar hududida tarqatish, shuningdek, ularning kino va televideniye mahsulotlarini mazkur efirlar tarkibiga kiritish masalalari bo'yicha radio va televideniye idoralari o'rtasida hamkorlik bayonnomalari imzolandi [4; – S. 277, 280, 287, 290]. Mazkur hujjatlar TRT ko'rsatuvlarini mahalliy yer usti telekanallari orqali efirga uzatish imkonini beradigan kelishuvlar edi [1; – S. 235]. Shunga asosan, Turkiyaning sun'iy yo'ldosh orqali uzatilayotgan "TRT-Int Avrasya" ko'rsatuvlarini milliy telekanallar orqali qayta uzatish yo'lga qo'yildi.

Maqolada Turkiyaning mintaqa davlatlari bilan televideniye sohasidagi hamkorligi davlat televideniye tashkilotlari misolida mamlakatlar kesimida tadqiq etilib, jarayonda kuzatilgan o'zgarishlar, aloqalar rivojining xususiyatlari hamda tomonlarning bu boradagi intilishlari o'rganiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Turkiya va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o'rtasida televideniye sohasidagi hamkorlikni aks ettiruvchi shartnomaviy-huquqiy hujjatlar, rasmiy tashriflar bayonotlari, TRT va TIKA (Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi) hisobotlari, turli rasmiy ma'lumotlar, davriy matbuot materiallari, internet manbalari, shuningdek, mavzuga daxldor ilmiy nashrlarga murojaat qilindi. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar tarixiy-xronologik, qiyosiy-tarixiy va manbalarni tahlil qilish usullari asosida o'rganildi.

NATIJALAR

1992-yildan boshlab sun'iy yo'ldosh orqali mintaqaning besh davlatiga, keyinroq esa Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekistonda milliy telekanallar orqali TRT efirlari uzatila boshlangan. Biroq mazkur efirlarning vaqti hamda hududiy qamrovi cheklangan edi. Turkiya va Qozog'istonning ta'lim, fan, madaniyat va sport sohalarida hamkorlikka oid bitimida (1992-yil 1-may) radio va televideniye tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish, ushbu hamkorlik doirasida televizion va radio dasturlar almashinuvini qo'llab-quvvatlash aks etgan edi [4; – S. 282–284]. Qolaversa, Turkiya Yevrosiyo televideniyesining ("TRT-Int Avrasya") Qozog'istonda efirga uzatilishi va Qozog'iston teleradio muassasasining ushbu telekanal uchun maxsus dasturlar tayyorlashi bo'yicha hamkorlik bayonnomasi rasmiylashtirilgan [4; – S. 287].

Natijada 1992-yil 4-avgustdan Turkiya efirlarini TVRO (Television Receive-Only – televizion signallarni qabul qilishga mo'ljallangan yer usti stansiyasi) orqali, mahalliy vaqt bilan soat 21:00 dan 23:00 gacha, faqat Olmaota hududida uzatish yo'lga qo'yildi [5; – S. 115]. Efir vaqtini uzaytirish va qamrov doirasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha

ISSN 3060-5059 (Online)

muzokaralar natijasida 1993-yilda TRT dasturlarini qayta uzatishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yana bir hujjat imzolandi.

Qirg‘izistonda Turkiya efirlari TVRO orqali 1992-yil 1-iyunda namoyish etila boshlandi. Dastlabki ko‘rsatuvlar mahalliy vaqt bilan soat 18:00 dan 21:00 gacha bo‘lgan (vaqt farqi 3 soat). Shunga ko‘ra, soat 15:00 dan 18:00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida faqat Bishkek shahri va undan 60 km radiusdagi hududda uzatilgan [5; – S. 115–116]. Qozog‘istondagi kabi, Qirg‘iziston bilan ham 1993-yilda yuqoridagi mazmunda kelishuv tuzilgan.

Turkiyalik tadqiqotchi S. Xyusem (S. Hüsem)ning qayd etishicha, Turkmanistonda “TRT-Int Avrasya” efirlari jiddiy siyosiy bahs-munozaralarni keltirib chiqargan. Buning natijasida texnik sabablar vaj qilinib, “TRT-Int Avrasya”ning Turkmanistondagi efirlari to‘xtatilgan [6; – S. 112].

Turkiya Bosh vaziri Sulaymon Demirelning Markaziy Osiyoni qamrab oluvchi hududga TRT dasturlarini uzatish bo‘yicha bergan ko‘rsatmasida Tojikiston ham nazarda tutilgan. Biroq Turkiyaning boshqa mintaqa davlatlari bilan imzolagan hamkorlik bayonnomasi Tojikiston bilan rasmiylashtirilmagan [1; – S. 235]. Mamlakatda boshlangan fuqarolar urushi va yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik sharoitida Bosh vazirning o‘sha paytdagi tashrifi amalga oshmagan edi.

Shunga qaramay, televideniye sohasidagi hamkorlik imkoniyatlari muhokamadan chetda qolmagan. Xususan, 1992-yil 6–7-iyulda Anqarada “TRT-Avrasya” faoliyatiga bag‘ishlangan yig‘ilishda ishtirok etgan Tojikiston vakili G. Mahmudov ko‘rsatuvlarni 1992-yil 15-iyuldan boshlash imkoniyati mavjudligini, shuningdek, qabul qiluvchi va uzatuvchi qurilmalarni o‘z ichiga olgan texnik jihozlarga ehtiyoj borligini ta’kidlagan. U soat 18:00 dagi yangiliklar dasturini maqbul deb hisoblagan hamda TRT bilan qo‘shma televizion dasturlar tayyorlashda ishtirok etishga tayyorligini bildirgan edi [1; – S. 242]. Biroq mavjud ma’lumotlar asosida ushbu takliflardan keyin qanday amaliy qadamlar tashlanganini aniqlash imkoni bo‘lmadi. Shu bilan birga, milliy telekanallar orqali uzatish bo‘yicha bayonnoma imzolanmagan bo‘lsa-da, Turkiyaning sun’iy yo‘ldosh orqali tarqatiladigan xalqaro efirlari texnik jihatdan Tojikiston hududini ham qamrab olganini qayd etish joiz.

Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasida radioeshittirish va televideniye dasturlarini o‘zaro almashish bo‘yicha hamkorlik bayonnomasi 1991-yil 19-dekabrda imzolangan [7; 3-b.]. Turkiya Bosh vaziri Sulaymon Demirelning 1992-yil aprel oyida O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida esa yana bir hamkorlik hujjati imzolangan [6; – S. 112].

Avvalroq sun’iy yo‘ldosh orqali sinov tariqasida namoyish etilgan “TRT-Int Avrasya” dasturlari O‘zbekistonda 1992-yil 1-iyuldan milliy telekanal orqali efirga uzatila boshlagan. Ular mahalliy vaqt bilan soat 17:00 dan 22:00 gacha uzatilgan (Turkiya televideniyesi nomi ostida berilgan dasturlar hafta kunlariga qarab farq qilgan [8; – S. 5–6]) [1; – S. 233].

MUHOKAMALAR

Turkiyaning mintaqa davlatlari bilan “TRT-Int Avrasya” efirlarini uzatish bo‘yicha rasmiylashtirilgan kelishuvlari amalda mazkur davlatlarda efir vaqti va hududiy qamrov jihatidan turlicha tatbiq etilgan. Turkiyaning ushbu sohaga mas’ul idoralari qo‘shimcha huquqiy hujjatlar bilan buni bartaraf etishga harakat qilgan. Jumladan, 1993-yil 23-oktabrdan boshlab Olmaota shahridagi 5-kanal efirida “Alatau” dasturidan so‘ng to‘rt soat davomida TRT ko‘rsatuvlarini qayta uzatish borasida Qozog‘iston bilan kelishuvga erishilgan. Kelishuvga ko‘ra, Qozog‘iston tomoni uzatkich qiymatini to‘lash, TRT uchun yangiliklar va boshqa dasturlarni tayyorlash, shuningdek, TRTning ayrim ko‘rsatuvlarini qozoq tiliga tarjima qilib, o‘z tarmog‘i orqali efirga uzatish majburiyatini olgan. Turkiya tomoni esa mazkur hamkorlik doirasida Qozog‘iston Teleradio tashkilotiga beg‘araz yordam sifatida mablag‘ ajratishni zimmasiga olgan [9; – S. 69].

Qirg‘iziston tomoni bilan erishilgan kelishuvga ko‘ra, TRT radio va televideniye dasturlarining mamlakat hududida 10 yil davomida sutkasiga 24 soat efirga uzatilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, buning uchun Turkiya tomoni 1994-yil yanvar oyidan boshlab mablag‘ ajratish majburiyatini olgan [9; – S. 33]. Biroq turkiyalik tadqiqotchining qayd qilishicha, 1994-yil boshidan boshlab “TRT-Int Avrasya” qo‘shma kanalining efir vaqti ertalab soat 09:00 dan tungi 02:00 gacha bo‘lgan, shuningdek, Bishkekdan tashqaridagi 4 ta shaharda 5 ta televizion uzatkich orqali tomosha qilish imkoniyati yaratilgan [5; – S. 116]. 1995-yilda Turkiya TRT va Qirg‘iziston davlat teleradio tashkiloti o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha yana bir bayonnoma imzolangan [10; – S. 9]. Keyinroq hamkorlik bayonnomasi yangilangan [11].

Turkmanistonda 1994-yilgacha “TRT-Int Avrasya” ko‘rsatuvlari sun’iy yo‘ldosh orqali mamlakatga yetkazilgan bo‘lsa-da, Ashxobodda Turkiya yordami bilan o‘rnatilgan TVRO orqali qabul qilingan dasturlar milliy teletarmoqqa uzatilmagan [5; – S. 116]. Buning sabablarini yuqorida qayd etilgan siyosiy masala bilan birga, Turkmanistonning mazkur efirlarni milliy teletarmoqqa ulashga ruxsat bermagani bilan bog‘lash mumkin. Chunki Turkmaniston tomoni faqat o‘z milliy teleko‘rsatuvlarining Turkiya hududida efirga uzatilishi evaziga bunga ruxsat berishi, shuningdek, uzatkichlar quvvatini oshirishni talab qilgani haqida qaydlar bor [1; – S. 234].

Milliy teletarmoq orqali ko‘rsatuvlarni uzatishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 1994-yil 2-fevralda imzolangan qo‘shimcha hujjatga muvofiq, Turkiya tomoni Turkmanistonga texnik jihozlarni yetkazib berish majburiyatini olgan. Turkmaniston tomoni esa 1994-yil 1-iyundan kechiktirmay “TRT-Int Avrasya” dasturlarining Ashxobodda har kuni mahalliy vaqt bilan soat 17:00 dan 21:00 gacha efirga uzatilishini ta’minlashi belgilangan [9; – S. 36]. Bundan tashqari, Turkmaniston radio va televideniye tashkilotini uzoq muddatli modernizatsiya qilish uchun zarur moliyaviy kreditni jalb etish masalasi ham nazarda tutilgan. Umuman, hujjatda belgilangan majburiyatlar bajarilganidan so‘ng, “TRT-Int Avrasya” dasturlarini Turkmaniston hududida uzluksiz efirga uzatish ko‘zda tutilgan [9; – S. 38].

Mazkur hamkorlik doirasida 1994-yildan boshlab Turkmaniston Milliy televideniyesining Turkiyadagi byurosi faoliyat yurita boshlagan. Shartnomada ushbu masala ham nazarda tutilgan bo‘lib, “TRT-Int Avrasya” kanali orqali haftasiga 10 daqiqa davomida turkman tilidagi yangiliklar efirga uzatilgan [5; – S. 117].

Bu jarayonning keyingi rivoji borasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar bir-biridan farq qiladi. Turkiyalik soha mutaxassisi Akarcalı tadqiqotida “Avrasya-TV” dasturlari Turkmanistonga yetkazib berilayotgani, biroq milliy teletarmoq orqali uzatilmayotgani qayd etilgan [1; – S. 234]. Boshqa bir manbada esa kanal ko‘rsatuvlari kuniga o‘rtacha to‘rt soat

davomida efirga uzatilgani keltirilgan [12]. Bu ma'lumotlar Turkmanistonda "TRT-Avrasya" ko'rsatuvlarini uzatish jarayoni bir xil kechmaganini ko'rsatadi. Jumladan, "Avrasia" telekanalini milliy teletarmoqlar orqali qayta uzatish Turkmaniston–Turkiya munosabatlarining ayrim jihatlari salbiy yoritilishi sababli bir necha marta to'xtatib qo'yilgani haqida ham ma'lumotlar uchraydi [13; – P. 462].

Turkiya Bosh vazirining 1992-yil aprel oyida O'zbekistonga tashrifi chog'ida imzolangan kelishuv milliy telekanallar orqali TRT ko'rsatuvlarini efirga uzatishni huquqiy jihatdan rasmiylashtirib bergan, deb hisoblash mumkin. Keyingi yillarda efirning hududiy qamrovi ham kengaygan. Xususan, 1993-yil aprel oyida Xorazm viloyati, Buxoro viloyatining Buxoro va Kogon shaharlari hamda Buxoro tumani aholisi TRT ko'rsatuvlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan [14; 2-b.]. "Moskva 2" kanali orqali uzatilgan mazkur efirlarni respublika aholisining 44 foizi tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'lgan [1; – S. 233].

Shunday bo'lsa-da, Turkiya O'zbekistonda ham o'z efirlarini uzaytirishga harakat qilgan. Xususan, tadqiqotlarda Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zalning (1989–1993) 1993-yil aprel oyida O'zbekistonga tashrifi chog'ida respublika telekanallaridan birini TRTga ajratish borasida taklif bildirgani va O'zbekiston rahbariyati bu borada majburiyat olishdan tiyilgani haqida ma'lumotlar qayd etilgan [15; – S. 11].

Bu holat, bir tomondan, O'zbekistonning TRT bilan hamkorlikni milliy telekanalda ajratilgan efir vaqti doirasida davom ettirishga e'tirozi bo'lmaganini ko'rsatishi mumkin. Boshqa tomondan, televideniye sohasidagi hamkorlik Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmanistonda kuzatilganidek, alohida moliyaviy-texnik majburiyatlarni nazarda tutuvchi qo'shimcha shartnomaviy hujjatlar shakliga to'liq o'tmagan, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Zero, ushbu sohaga oid o'rganilgan tadqiqot ishlari va rasmiy nashrlarda bunday kelishuv haqida ma'lumot uchramadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, XXI asr boshlarida ayrim Markaziy Osiyo mamlakatlarida "TRT-Avrasya" ko'rsatuvlarini mahalliy telekanallar orqali uzatish amaliyoti to'xtatilgan. O'zbekiston va Turkmaniston milliy telekanallari orqali uzatib kelingan "TRT-Avrasya" dasturlari bosqichma-bosqich qisqartirilib, 2001-yildan boshlab butunlay to'xtatilgan [16; – S. 28]. Biroq O'zbekistonning davriy matbuot materiallarini o'rganish jarayonida bundan farqli holatga duch kelish mumkin. Xususan, 2001-yil 24–30-dekabr kunlariga oid teledasturlar jadvalida Turkiya televideniyesi uchun soat 15:00 dan 16:00 gacha efir vaqti ajratilgan [17]. Shu bilan birga, 2002-yilga oid O'zbekiston milliy telekanallari teledasturlari jadvallarida (O'zTV-I, O'zTV-II, O'zTV-III, O'zTV-IV) Turkiya televideniyesi uchun efir vaqti ajratilgani to'g'risida ma'lumot uchramaydi [18]. Biroq boshqa tadqiqotda bundan farqli ma'lumot keltirilgan: unda 2001-yildan keyin "TRT-Türk" nomi ostida faoliyat yuritgan telekanal dasturlari Turkmaniston va O'zbekistonda milliy televizion tarmoqlar orqali ham maqsadli auditoriyaga yetkazilgani qayd etilgan [2; – S. 520]. Mazkur tadqiqotda milliy telekanallar orqali uzatish qaysi davrgacha davom etgani aniq ko'rsatilmagan.

Milliy telekanallarda TRT efirlarini berish to'xtatilganini O'zbekiston va Turkmanistonning Turkiya bilan munosabatlaridagi o'zgarishlar bilan muayyan darajada bog'lash ehtimoldan xoli emas. Zero, 2000-yillarda O'zbekistonda Turkiya bilan bog'liq qator qo'shma loyihalar faoliyati tugatilgan edi. Turkmanistonda esa xorijiy telekanallarni retranslyatsiya qilish amaliyoti to'xtatilib, ularning o'rnida milliy telekanallar tashkil etila boshladi. Biroq bu holatlar TRT dasturlarining mahalliy efirdan olib tashlanishiga aynan siyosiy omillar sabab bo'lganini to'liq tasdiqlamaydi.

Umuman olganda, 1990-yillarning boshlarida Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari muayyan natijalar bergan bo'lsa-da, keyingi yillarda munosabatlarda yuz bergan o'zgarishlar, "TRT-Avrasya" efirlarini milliy telekanallar orqali tarqatish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar, shuningdek, mintaqa aholisining Turkiya turkchasini tushunishi bilan bog'liq omillar sababli xalqaro efirlarning yetarli auditoriyani qamrab ololmagani Turkiyada TRTning mintaqaga yo'naltirilgan efir siyosatini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Jumladan, maxsus televizion kanal tashkil etish, turkiy tilli davlatlarga ushbu kanal orqali o'z ona tillarida yangiliklar va boshqa dasturlarni efirga uzatish imkoniyatini berish, shuningdek, mazkur kanal uchun "Türksat" sun'iy yo'ldoshidan bepul chastota ajratish taklif etilgan [19; – S. 7].

2001-yil 31-yanvarda "TRT-Avrasya" (1997-yil 12-aprelda "TRT-Int Avrasya" kanali ikkita alohida kanalga – "TRT-Int" va "TRT-Avrasya" kanallariga bo'linib, faoliyatini davom ettirgan [20; – S. 138]) o'z nomini "TRT-Türk"ga o'zgartirdi. "TRT-Türk" kanali faoliyatida turkiy dunyo uchun umumiy axborot makonini shakllantirish, shuningdek, boshqa turkiy respublikalarda tayyorlangan dasturlarni ham efirga uzatish maqsadi ko'zda tutilgan edi [21]. Dastlab har ikki soatda bir marta efirga uzatilgan yangiliklar 2008-yildan boshlab har soatda berila boshlangan. Turkiya turkchasidagi ko'rsatuvlarni boshqa turkiy tillarda subtitrlar bilan taqdim etish ham yo'lga qo'yildi [2; – S. 520].

2009-yil 21-martda turkiy dunyo uchun umumiy madaniy-axborot platformasiga aylanish maqsadida "TRT-Türk" kanalining chastotalari o'rnida turkiy tillarda efir uzatuvchi yangi "TRT-Avaz" (o'zbek tilida "ovoz") kanali o'z faoliyatini boshladi [20; – S. 138]. Shu tariqa, dastlabki bosqichda asosiy vazifasi ma'lum ma'noda Turkiyani dunyoga tanitishdan iborat bo'lgan TRT xalqaro efirlarining strategik maqsadlari davlat tashqi siyosatidagi o'zgarishlar jarayonida transformatsiyaga uchradi. Bu jarayon "TRT-Avaz" kanali dasturlarida ham o'z aksini topdi: turk tilidan tashqari, mintaqa xalqlarining, jumladan, o'zbek, turkman, ozarbayjon, qirg'iz, qozoq, bosniya va alban tillaridagi ko'rsatuvlar ham efirga uzatila boshlandi. Turkiya turkchasidan boshqa tillarda tayyorlangan dasturlar uchun esa turk tilida subtitrlar berish yo'lga qo'yildi [22; – S. 52].

XULOSA

XX asrning 90-yillaridan boshlab yo'lga qo'yilgan Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligida ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniye muhim yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiyaning mintaqadagi media faoliyati ayrim davlatlar bilan sohaviy hamkorlik bo'yicha institutsional kelishuvlar va alohida shartnomalar asosida yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, mamlakatlarning ichki shart-

sharoitlari va ushbu masaladagi yondashuvlariga ko‘ra turlicha kechgan. TRT dasturlarini milliy telekanallar orqali namoyish etish uchun ko‘rsatilgan moddiy-texnik va moliyaviy ko‘mak, shuningdek, efir siyosatini shakllantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar Turkiyaning Markaziy Osiyodagi axborot-madaniy ta’sirini kengaytirishga qaratilgan tashqi siyosiy vositalardan biri bo‘lganini muayyan darajada ifoda etadi.

Hamkorlik jarayonida yuzaga kelgan holatlar, shuningdek, ichki va tashqi omillar Markaziy Osiyo (va boshqa mintaqalar) auditoriyasiga mo‘ljallangan TRT xalqaro telekanalining faoliyati hamda efir konsepsiyasi o‘zgarishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. “TRT-Avaz” faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligi media hamkorlikning mazmuni va maqsadi o‘zgarganini muayyan darajada ifoda etadi. Kanal xalqlar o‘rtasida axborot almashinuvi va madaniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vositaga aylana boshladi, deb hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akarcalı S. Radyo ve Televizyonda Türk Dış Yayınları. – Ankara: İmaj Yayıncılık, 2003.
2. Güz N. Türk Devletlerinin Kültürel Birlikteliği ve Medya // Selçuk İletişim. – 2025. – Cilt 18, № 1. – S. 515–538.
3. Historical Background of Radio and Television Broadcasting in Turkey [Elektron resurs] // Internet Archive: Wayback Machine. – URL: https://web.archive.org/web/20060830170539/http://www.byegm.gov.tr/REFERENCES/radyo-tv2002.htm (murojaat qilingan sana: 05.10.2026).
4. Dışişleri Bakanlığı 1992 Tarihçesi / T. C. Dışişleri Bakanlığı Eğitim Merkezi. – Ankara, 1994. – URL: https://diad.mfa.gov.tr/db-tarihce.tr.mfa (murojaat qilingan sana: 04.07.2026).
5. Yılmaz Y. Bağımsız Türk Cumhuriyetleri ile Sosyo-Kültürel İlişkilerde Televizyonun Rolü: Yüksek Lisans Tezi. – İstanbul: Marmara Üniversitesi, 1996.
6. Hüsem S. Türk Dünyası Vizyonunun Diplomatik Temelleri: Demirel’in Türk Cumhuriyetleri Gezisi (27 Nisan – 4 Mayıs 1992) // Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi. – 2025. – Cilt 10, № 2. – S. 101–118.
7. Xalq so‘zi. – 1991. – 28-dekabr.
8. Программа телевидения 27.VII – 2.VIII.1992 г. // Голос Узбекистана. – 1992. – Июль.
9. TİKA Türk İşbirliği ve Kalkınma Ajansı Başkanlığı // Dışişleri Bakanlığı Tarihçesi. – 1994. – URL: https://diad.mfa.gov.tr/db-tarihce.tr.mfa (murojaat qilingan sana: 04.07.2026).
10. Dışişleri Bakanlığı Tarihçesi. – 1995. – URL: https://diad.mfa.gov.tr/db-tarihce.tr.mfa (murojaat qilingan sana: 02.07.2026).
11. TRT ile KTRK İşbirliği: TRT ile Kırgızistan Radyo Televizyon Kurumu Arasındaki İşbirliği Protokolü Yenilendi // TRT Avaz. – 28.09.2017. – URL: https://www.trtavaz.com.tr/haber/tur/turkistandan/trt-ile-ktrk-isbirligi/59cca41301a30a0a805a669e (murojaat qilingan sana: 09.10.2026).
12. Арзыбов К. Когда речь идет о средствах массовой информации, у жителей Туркменистана выбора практически нет // IWPR. – 2005. – 21 февраля. – URL: https://iwpr.net/ru/global-voices/kogda-rech-idet-o-sredstvakh-massovoy-informacii-u-zhiteley-turkmenistana-vybora (murojaat qilingan sana: 27.10.2026).
13. Minority-Language Related Broadcasting and Legislation in the OSCE / ed. by T. McGonagle, B. Davis Noll, M. Price. – Oxford: Programme in Comparative Media Law and Policy (PCMLP), Oxford University; Amsterdam: Institute for Information Law (IViR), Universiteit van Amsterdam, 2003.
14. Xalq so‘zi. – 1993. – 4-aprel.
15. Eren E. Turgut Özal’ın Orta Asya (Türkistan) Politikası // Elektronik Siyaset Bilimi Araştırmaları Dergisi. – 2022. – Cilt 10, № 25. – S. 60–84.
16. Özkan İ. Cumhuriyet Döneminde Türkiye ile Türk Dünyasının İlişkileri // Cumhuriyet’in 80. Yılında Türkiye. – Ankara: Türk Ocakları Genel Merkezi, 2004. – S. 367–400. – URL: https://www.isaozkan.com/dosyalar/Cumhuriyetin-80-Yilinda.pdf.
17. «ТВ»: еженедельное приложение к газете «Ташкентская правда». – 2001. – 20 декабря. – № 102. – URL: http://tvp.netcollect.ru/prog_channel.php?year=2001&channel=4559.
18. «Очная ставка TV»: еженедельная программа телевидения. – 2002. – 26 декабря. – № 52 (290).
19. Правда Востока. – 2002. – 12 октября.
20. Правда Востока. – 2002. – 6 декабря.
21. Türkiye ile Türk Cumhuriyetleri ve Bölge Ülkeleri İlişkileri Özel İhtisas Komisyonu Raporu: Sekizinci Beş Yıllık Kalkınma Planı / Devlet Planlama Teşkilatı Özel İhtisas Komisyonu. – Ankara: DPT, 2000.
22. Tongut S., Yavuz C. Sovyetler Birliğinin Dağılmasından Sonra Kırgızistan ile İlişkilerde Türk Medyası: TRT-Avrasya, TRT-Türk ve TRT-Avaz // Manas Sosyal Araştırmalar Dergisi. – 2014. – Cilt 3, № 3. – S. 133–145.
23. TRT Türk [Elektron resurs] // Telepedia. – URL: https://telepedia.fandom.com/ru/wiki/TRT_T%C3%BCrk (murojaat qilingan sana: 05.10.2026).
24. Türkiye Radyo Televizyon Kurumu 2014 Faaliyet Raporu. – Ankara: Eflal Ajans Matbaacılık, 2015. – 224 s.